XALQ DEPUTATLARI SHOFIRKON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 18-oktabr VI-106-102-2-41-K/24 Shofirkon tumani

Tuman mahalliy budjetining maqsadli xarajatlarini o‘z vaqtida amalga oshirish hamda 2024-yil to’qqiz oy davomida xarajatlari rejasiga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 147-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi hujjatlari hamda xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlariga asosan 2024-yil davomida budjet tashkilotlarining so‘roviga binoan birinchi darajali to‘lovlar va joriy xarajatlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish maqsadida vakolat doirasida kiritilgan o‘zgartirishlarni hisobga olish va maqsadli tadbirlarni moliyalashtirish uchun tegishli o‘zgartirishlar bo‘yicha takliflar kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 147-moddalasiga asosan tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i N.Naimovning tuman mahalliy budjetining 2024-yil to‘qqiz oyi davomida xarajatlar rejasiga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan hisobotnini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L D I:

1. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining bildirishnomalari va vakolat doirasida tasdiqlangan taqdimnomalariga asosan 2024-yil davomida budjet tashkilotlarining birinchi darajali to‘lovlari va joriy xarajatlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish maqsadida hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratilgan mablag‘larning cheklangan miqdorlari hamda tuman mahalliy budjeti xarajatlari rejasiga kiritilgan o‘zgarishlar 1- va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin

2. Tuman Soliq inspeksiyasi (O.Muqimov):

2024-yil uchun belgilangan daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlari barcha soliq turlari kesimida to‘liq bajarilishini ta’minlash:

-budjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy budjetga qo‘shimcha soliq tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish topshirilsin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Naimov), tuman G‘aznachilik xizmati (D.Jabborov):

-mahalliy budjet parametrlarida ko‘zda tutilgan xarajatlarni, xususan birinchi darajali to‘lovlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish ta’minlash.

-budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimi o‘ribosarlari va tegishli byudjet tashkilotlari:

-tuman mahalliy budjetidan ajratilgan mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablari asosida belgilangan tartibda ishlatilishini ta’minlasin.

Infratuzilma obyektlarida belgilangan tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish va foydalanishga topshirilishini ta’minlash.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat kilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.To‘xsanov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi FAYZILLOYEV ALISHER ABDILLOYEVICH

Xalq deputatlari Shofirkon tumani
Kengashining
2024-yil 18-oktabrdagi
VI-106-102-2-41-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Shofirkon tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

mln.so‘mda

№	Budjet mablag‘larini taqsimlovchilar nomi	238 823,0
1	Maktabgacha taʻlim muassasalari	18 676,8
2	Umumiy oʻrta taʻlim maktablari va ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan umumtaʻlim maktablari	3 635,3
3	"Barkamol avlod" bolalar markazi	2 685,2
4	Xalq taʻlimi boʻlimlari	5 121,3
5	Tibbiyot birlashma	112 691,6
6	Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari	3 463,0
7	Madaniyat bo‘limi	1 477,0
8	3-son Bolalar musiqa va sanʻat maktablari	2 343,4
9	9-son Bolalar musiqa va sanʻat maktablari	2 500,4
10	Bolalar va o‘smirlar sport maktablari	7 426,0
11	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi	4 839,0
12	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	5 056,0
13	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boʻlimi	2 406,0
14	Xayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xafsizligi davlat markazi	323,6
15	Fermer xoʻjaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi	648,2
16	Irrigatsiya bo‘limi	2 219,4
17	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 090,0
18	Tuman soliq inspeksiyasi	4 592,1
19	Obodonlashtirish boshkarmasi	20 704,0
20	Axborot kutubxona markazlari	764,4
21	Tuman hokimligi	7 782,3
22	Xalq qabulxonasi	146,0
23	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	266,0
24	Ijtimoiy koʻnikma markazi	95,1
25	Mahalla budjeti	2 151,6

26	Fuqarolarning tashabbusli jamg‘armalari	22 578,1
27	Hokimlikning zahira jamg‘armasi	2 141,0

Xalq deputatlari Shofirkon tumani Kengashining
2024-yil 18-oktabrdagi
VI-106-102-2-41-K/24 -son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi hujjatlariga asosan 2024-yil davomida Shofirkon tumanidagi +A3:M19i budjet tashkilotlarining birinchi darajali to‘lovlari hamda joriy xarajatlarini o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilariga ajratilgan mablag‘larning cheklangan miqdorlari hamda shaharlar va tumanlar mahalliy budjetlari xarajatlari rejasi bo‘yicha o‘zgartirishlar miqdori

mln.so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilari nomi	2024-yilda tasdiqlangan budjet xarajatlari miqdori	2024-yilda aniqlangan budjet xarajatlari miqdori	Farqi (2024-yil davomida o‘zgartirishlar miqdori)	shu jumladan, o‘zgartirishlar							
					Erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining bildirishnomalariga asosan kiritilgan o‘zgartirishlar hisobidan	Viloyat budjetining zaxira jamg‘armasi hisobidan	Viloyat budjetidan advokatlik xizmati, fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi", sud boshqaruvchilari mehnatiga haq to‘lash hisobidan	Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9 fevraldagi 79-sonli qaroriga asosan suv yetkazib berish xizmati xodimlarining ish haqqi xarajatlarini o‘z vaqtida amalga oshirish uchun		O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 13..06.2024-yildagi 03-RA 2-5258/3-sonli va Vazirlar Mahkamasining 14.06.2024-yildagi 03/1-2001-sonli topshiriqlari hamda Xalq deputatlari viloyat Kengashining 21.05.2024-yildagi VI-97-46-2-0-K/24-sonli qaroriga asosan o‘zgartirishlar hisobidan	Mahalliy budjetning xarajatlari doirasida ichki o‘zgartirishlar (zaxira jamg‘armasi va joriy xarajatlar)
									Xalq deputatlari tumanlar Kengashlarining qarorlariga asosan mahalliy budjetlar xarajatlarini oshirish hisobidan	Irrigatsiya bo‘limlarini saqlash xarajatlarini qayta taqsimlash hisobiga (29.06.2024-yildagi VI-98-49-2-0-K/24)		
	Shofirkon tumani jami	**238 823,0**	**251 060,8**	**12 237,8**	**587,7**	**23 304,8**	**20,6**	**160,6**	**2 084,0**	**-103,0**	**-13 816,8**	**0,0**
1	Maktabgacha va maktab ta’lim	30 118,7	52 429,6	**22 310,9**	0,0	22 676,2					-365,3	0,0

	boshqarmasi											
2	Sog‘liqni saqlash boshqarmasi	116 154,7	101 877,5	**-14 277,2**	0,0	-231,5					-14 045,7	0,0
3	Madaniyat va turizm boshqarmasi	6 320,9	5 995,3	**-325,6**	4,5	0,0					-400,8	70,7
4	Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi	12 265,0	13 711,5	**1 446,4**	24,0	706,2					472,1	244,2
5	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi	20 704,0	19 991,9	**-712,1**	31,0	0,0					-945,9	202,9
6	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi	3 377,8	3 821,1	**443,4**	0,0	0,0					443,4	0,0
7	Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	2 219,4	2 149,3	**-70,1**	0,0	0,0			2 084,0	-103,0	-2 101,1	50,0
8	Kambag‘alli kni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi	5 056,0	5 417,7	**361,7**	0,0	154,0					207,8	0,0
9	Itisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	2 090,0	2 198,9	**108,9**	0,0	0,0					108,9	0,0
10	Soliq inspeksiyasi	4 592,1	4 692,1	**100,0**	0,0	0,0					100,0	0,0
11	Hokimiyat	34 635,3	37 606,1	**2 970,8**	528,2	0,0	20,6	160,6			2 829,3	-567,8
12	Xalq qabulxonasi	1 023,2	910,2	**-113,1**	0,0	0,0					-113,1	0,0
13	Xalk deputatlari Kengashi kotibiyati	266,0	259,8	**-6,2**	0,0	0,0					-6,2	0,0

** Joriy yil davomida vakolat doirasida Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlari va tuman*

hokimining farmoyishlariga asosan kiritilgan o‘zgartirishlar hisobga olingan.